

“HAYRAT UL ABROR” ASARIDA QO‘LLANGAN HARAKAT VA HOLAT FE‘LLARI VA ULARNING SEMANTIK GURUHLARI

Sobirova Shahzoda Faxriddin qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
NTM O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrası o‘qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so‘zlar:

Alisher Navoiy, eski o‘zbek adabiy tili, harakatni bildiruvchi so‘zlar, holatni bildiruvchi so‘zlar, leksik-semantik xususiyat, nutq fe‘llari, hius-tuyg‘u fe‘llari, graduonimiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning durdona asari hisoblangan «Hayrat ul-abror» dostonida qo‘llangan eski o‘zbek tiliga xos harakat va holat fe‘llari xususida fikrlar bayon etilgan. Bundan tashqari, maqolada eski o‘zbek leksikasining fe‘l so‘z turkumi doirasi yetarlicha tadqiq etilgan. Fe‘llarni qo‘llash davomida ularning sinonimlari va o‘xshash tasviriy ifodalari bilan o‘rin almashinib qo‘llanganligi aniqlandi. Eski o‘zbek tiliga xos harakat-holat bildiruvchi leksemalarning mahurat bilan qo‘llanganligi aniq ko‘rsatib berildi. Bu esa buyuk mutafakkir bobomiz, Mir Alisher Navoiyning naqadar cheksiz istedod egasi ekanligi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Introduction.

Harakat-holat bildiruvchi so‘zlar: «Hayrat ul-abror»da eski o‘zbek tiliga xos harakat-holat bildiruvchi leksemalar qo‘llangan. Fe‘l turkumiga oid leksemalarning turkiy tillarga xos semantik xususiyatlari aks etgan. E.R.Tenishev turkiy tillardagi 18 ta harakat fe‘lining semantik xususiyatini izohlab, bu fe‘llarni semantik xususiyatlariga ko‘ra to‘rtga ajratgan: 1. Harakat fe‘llari. 2. Holat fe‘llari. 3. His-tuyg‘u fe‘llari. 4. Nutq fe‘llari. Fe‘llarning ushbu semantik guruhlariga mansub ko‘rinishlari «Hayrat ul-abror»da aks etgan. Fe‘l leksemalar sodda (qayt-, yon-, ol-) va qo‘shma (raf qil-; man’ qil-; bo‘ldura ol-; org‘a sol-; ko‘makka yetish-), harakat tarzi (yeta kel-) shakllarida ishlatilgan.

«Hayrat ul-abror»dagi harakat-holat bildiruvchi semantik maydon shaxs, narsa-buyum harakati va holatini aks ettiruvchi leksik birliklardan iborat. Harakat-holat bildiruvchi leksik birliklar quyidagicha guruhlandi:

- 1) **harakat fe‘llari:** tut-, qo‘y-, qala-, otlan-, her-, chop-, chirma-;
- 2) **holat fe‘llari:** mulozamat qil-, taraqqiy qil-, rioyat qil-, taraddud qil-;
- 3) **tafakkur fe‘llari:** ixtiro qil-, xayol qil-, mulohaza qil-;
- 4) **nutq fe‘llari:** de-, arz qil-, ayt-, ta‘rif qil-.

“Hayrat ul-abror» matniga xos harakat-holat so‘zlaridan biri **yukun-** harakat leksemasidir. Yukun - “egilmoq, tiz cho‘kmoq” (BAL, 173); “hurmat, ta‘zim yuzasidan egilmoq” (NAL,712)

ma'nolarida izohlangan. Bu fe'l qadimgi turkiy tilda "bukla" ma'nosini anglatgan yuk- fe'lining "buk" ma'nosidan o'zlik nisbat yasovchi -un qo'shimchasi bilan hosil qilingan (O'TEL,183).

«Hayrat ul-abror»dagi "yukundim", "qo'pmoq"; "ta'zim qildi", "burung'idek - o'q ta'zim qilib qo'ptum", "ko'rushurda uch qatla yukunib..", "..yigirma besh, yigirma olti qatla payopay yukundi", "yurub ko'rushib o'tlanildi" kabi so'z, birikma, iboralarda shaxs fe'l - atvorining turli qirralari hamda davlat arbobining mavqeini belgilovchi nozik ma'no va mazmun yashirin. Yukun- qadimgi turkiy tilda "sajda qilmoq" ma'nosini bildirgan: jükün "poklonyatsya, klanyatsya "(DTS,285); jyakyandi "xudoga sajda qildi" (DLTind.,147): Tojin burxanqa jüküندی monax poklonilsya Budde (DTS, 572); jükyandi "bosh egdi" ma'nosida ham qayd etilgan (DLT,III,92). Turkiy yuk-, yukunch "ta'zim qilmoq", "topinmoq", "sajda qilmoq" so'zining asosi **yuka** shaklida sug'd tilida bitilgan eng qadimgi Bug'ut yodnomasida uchraydi.

Yukun- fe'lining orttirma nisbat shakli yukundur - "ta'zim qildirmoq", "tiz cho'ktirmoq", bosh egdirmoq" ma'nolarini ifodalagan. (BAL, 173). Yukundur - «Hayrat ul-abror»da quyidagi ma'nolarda kelgan: a) "tiz cho'kdirmoq", "egdirmoq": Buyurdimkim, oyog'ini tortib yukundurdilar (328); b) "ko'ndirmoq", "qarorga bo'yin egdirmoq", "tayinlamoq" ma'nosida qo'llangan: Har ikkalasini Balxqa va Astrobodqa bir majlista yukundurdi (94/54,1);

"Yukunmoq"ning shunchaki yoki astoydil bajarilgani asar tilida o'z ifodasini topgan. "Shunchaki, bir bor" egilish tushunchasi **birar** ravishi bilan birgalikda aks ettirilgan: **Ko'rushurda uch qatla yukunub, yong'anda ham uch qatla, so'rg'anda va tortuq tortqanda birar yukundi (181)**. Ushbu jumladagi *biror yukundi* birikmasida "harakatning nomiga bajarilganlik" semasi aks etgan. "Astoydil, ko'p bora egilish" tushunchasi qalin yukundi birikmasida ko'zga tashlanadi: **Tortiq tortqanda ham qalin yukundi (160)**. Yukunish har qanday vaziyatda ham bajarilishi lozim bo'lgan tavoze' ko'rinishi hisoblangan: **Oldarag'ondin yukunub kelguncha ikki qatla yiqildi...(264)**.

Quyidagi jumlada yukun- so'zi bukil dan keyingi harakat-holatni ifodalagan: **Yovuq yetishib tushtum, mahal ul taqozo qilmadi, yukungucha forsati ham bo'lmadi, bukulub borib ko'rushtum...buyurdilarkim tushub mening bila yukunub ko'rushgaylar (160)**. Ushbu jumladan ma'lum bo'ladiki, asar yaratilgan davrga xos tavoze'-mulozamat etiketining ko'rinishlari quyidagi so'zlar orqali ifodalangan: bukilmog-ta'zim qilmoq-yukunmoq-tiz cho'kmoq.

Yukunishning takroriyliigi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Odatiy hollarda bir qatla, tavoze' yuqoriroq bo'lsa uch qatla, samimiy hurmat, mulozamat qilinganda to'qqiz qatla "yukunilgan": **Ko'rushurda uch qatla yukunub, yong'anda ham uch qatla, so'rg'anda va tortuq tortqanda birar yukundi (181)**.Yukunish shaxs bilan yuzma-yuz ko'rishish jarayonida bajarilgan: Ko'rushur yerga yetishib to'qquz qatla yukunub kelib kohushti Hukmdor shaxs huzuridan chiqishda ham ado etilgan: Yong'anda ham kichik xon to'qquz qatla yukundi (160). Harakatning takroriyliigi meyordan oshsa, bu tavoze'dan ko'ra ko'proq uzr, afvni ifoda etgan. Yigirma besh, yigirma olti qatla payo-pay yukundi va bordi va keldi (181).

"Alisher Navoiy Xisravshoh ta'zimini atayin sanagan (25-26 marta), bunga diqqat qilgan. ... mag'lublik holatini muallif saroy rasm-rusumidagi zodagonlar xatti- harakati, temuriylar saltanatchilik qoidalari orqali ifodalagan"; bordi va keldi so'zlari yukunishning yuqori darajasidan keyingi harakat-holatni ifodalagan.

Yukun- fe'li hozirda ruhiy holat, harakat ifodasi sifatida faqat badiiy uslubda qo'llanadi, "ta'zim qilmoq", "iltijo qilmoq" ma'nolarini ifodalaydi (O'TIL,II,466). So'zning qadimgi turkiy tildagi "sajda qilmoq", eski o'zbek adabiy tilidagi "ta'zim qilmoq" semalari iste'moldan chiqqan.

Yukun- fe'lga semantik jihatdan yaqin bo'lgan qulluq so'zi asarda quyidagi ma'nolarni ifodalagan: a) "podshohga ehtirom yuzasidan qilingan xizmat" ma'nosida kelgan: Bu yog'iyarning ustig'a o'tlanmoqchi edukkim, Humoyun arzg'a yetkurdikim, podshoh o'tlanmoq ne hojat, bu qulluqni men

qilay (369/213,11);

b) "podshoh huzuri" ma'nosini anglatgan: Firuzxon va Shayx Boyazid va Mahmudxon Nuhoniy va Qozi Jiyo qulluqqa keldilar (366); v) "egilish orqali afv etishni so'rash"ni bildirgan: Qozi G'ulom qulluq bahonasi bila xalos bo'ldi (121); g) "bo'ysunish"ni bildirgan: ...Xisravshohning aksar kishisi buzulub, podshoh qullug'ig'a kelgusidur (180); Umid andoqturkim, ushbu kun tongla Xisravshohning jam'i navkar va savdari kelib, podshoh qullug'ini qabul qilg'ay (179). Qulluq qilmoq hozirda so'zlashuv uslubida "egilmoq", "ta'zim qilmoq", "bo'ysunmoq" tushunchalarini bildiradi (O'TIL,II,616). Ixlos so'zi ham shu tushunchani anglatgan: Abulqosim ko'hbur va Ibrohim tarxon o'bdon kishilarini mulozamatqa yuborib, qulluq va ixlos izhorini qildilar (139).

Sig'in- so'zi ham "egilmoq" tushunchasini bildirgan: Bir qashqa otliq kishi manga yaqin sig'inib keldi (162). Bu jumladagi egilish "ta'zim qilish" ma'nosida bo'lmay, shunchaki hamla qilish uchun payt poylash tushunchasini ifodalagan. Quyidagi jumlada esa "yaqinlashmoq" tushunchasini anglatgan: ...kecha erta yavuq sig'inib qapug'a kelgan ishni taqdir qilmag'aybiz (155). **Sig'inmoq** hozirgi o'zbek adabiy tilida diniy atama sifatida qayd etilgan bo'lib, "xudoga, aziz-avliyolarga qulluq qilmoq, ibodat qilmoq, topinmoq va ko'chma ma'noda biror kimsaga yoki narsaga e'tiqod qilmoq" tushunchalarini ifodalaydi (O'TIL,II,59). "Egilmoq" semasi iste'moldan chiqqan.

Bukil - ta'zim qilmoq - qulluq qilmoq - yukunmoq - tiz cho'kmoq - sig'inmoq so'zlari "egilish"ning turli daraja-ko'rinishlarini ifodalagan. Darajalanish tushunchani farqlab ko'rsatar ekan, uni ayni bir tushunchaning ifodalanishi, "darajalanish qatorining bosh so'zi ma'nodoshlik qatorining bosh so'zi singari nutqda o'z qatori a'zolarining o'rnini bosa oladi", tarzida baholash bir oz mulohaza tug'diradi. Shu bilan bir qatorda, graduonimiyani ma'nodoshlikning bir turi deb baholash nisbiy.

Xulosa qilib aytganda, «Hayrat ul-abror» dostonida qo'llangan so'zlar gradatsiyasi ta'sirchanlikni oshirish, tushunchani yorqin ifodalashga xizmat qilgan.

Asarda harakat-holat bildiruvchi qo'sh-, ber-, tur-, kel-, berkit-, yon-, chiq-, izhor qil-, tush-, ayril-, sol-, buyur-, so'r-, tort-, ko'ch-, o't-, bos-, kengash-, ... kabi jami 1745 ta so'z qo'llangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati. E.I.Fozilov tahriri ostida. I tom Toshkent. 1983 -656 s; II tom. Toshkent, 1983. -642 s; III tom. Toshkent, 1984. -622 s; IV tom. 1985. -634
2. Sobirov A. O'zbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish.-Filol. Fan. nom. ...Diss. avtoref.-Toshkent, 2005.50 b.
3. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.1979.-213 b.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (arab so'zlari va ular bilan hosilalar). Toshkent: Universitet, 2003. -599 b.
5. Abdulkayirov M. Navoiy asarlarida so'z va iboralar.-Toshkent: Tafakkur bo'stoni,2009.-240 b.